



“IKKI ESHIK ORASI”ROMANIDA RUHIY HOLAT IFODALAYDIGAN FRAZELOGIZMLARNING O’RNI

Sharipova Maxliyoxon G’ayratovna

TATU FF akademik litsey ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O’tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asarida keltirilgan qahramonlar ruhiyatini ochib berishdagi verbal vositalardan frazeologizmlar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit soʻzlar: *Psixolingvistika, funktsionallashtirish, paralingvistika, verbal vositalar, noverbal vositalar.*

Frazeologizmlar voqea-hodisa, belgilarning inson ongiga kuchli taʼsir qilishi, shu kuchli taʼsir natijasini nutqda toʻlalgicha ifodalash, umuman, fikrning taʼsirchanligiga erishish maqsadi zaminida yaratilgan til hodisasidir.⁴

Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon koʻzi oʻngida aniq va toʻla gavdalantirishda frazeologik iboralarning oʻrni, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning oʻziga xos obrazli ifodalaridir. Yozuvchilar odatda tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qoʻllash bilangina kifoyalanib qolmaydilar. Balki, qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab oʻzgartiradi va qayta ishlaydi.⁵ Badiiy matnda iboralar qahramonlarning xarakteri, ruhiy-psixik holati, kayfiyati va suhbatdoshga munosabatini aks ettirishning samarali vositasi hisoblanadi va keng qoʻllanadi. Chunki “frazeologizmlar shaxsning psixik holati, his-hayajoni, ichki kechinmalari, voqea-hodisalarga munosabatini obrazli, emotsional - ekspressiv ifodalash zaruriyati asosida shakllangan til hodisasidir.”⁶

Xullas, uch kun avval «Moskvich»ida kelib qoldi. Yigitlar uchinchi qavatda domino oʻynab oʻtirishar, shaqur-shuqur tovushlar pastdan bemalol eshitilib turardi. Shavkat Qudratovichning rangi oʻchib ketdi. (6-bet)

Keltirilgan matn parchasida rangi oʻchib ketdi iborasi qoʻllangan boʻlib, uning maʼnosi qoʻrqib ketdi, demakdir. Agar yozuvchi tomonidan *rangi oʻchib ketdi* iborasi emas, leksik vositalar tanlanganda, Shavkat Qudratovichning qoʻrqib ketgani, vahimaga tushgani, dovdirab qolgani, shunga yarasha psixofiziologik holat – rangi oʻchib, yuz oqarishi yuzaga kelgani aniq ifodalanmagan boʻlardir. Koʻrinadiki, aynan oʻquvchi tasavvurida qahramonning fiziologik va ruhiy holatini aks ettirishda frazeologizmlar ahamiyatlidir.

⁴ Абдуллаев А. ЎЗБЕК ТИЛИДА ЭКСПРЕССИВЛИК ИФОДАЛАШНИНГ СИНТАКТИК УСУЛИ. Тошкент, 1987. Б.4.

⁵ Yoʻldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent, 2008. -b.64.

⁶ Маматов А. ЎЗБЕК ТИЛИ ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ МАСАЛАЛАРИ. Фило.фан.доктори...дисс.автореф. Тошкент, 2000. Б.16.

Iboralar ekspressivlik ifodalashga xizmat qilishi bilan ularda tilning ekspressiv funksiyasi bor bo'yicha namoyon bo'ladi.

Frazeologizmlarning nominativlik ma'nosidan tashqari emotsional-ekspressiv, bahomunosabat kabi ma'no elementlarining omuxtalashi faqatgina predmetga xos bo'lgan mantiqiy ma'noni ifodalab qolmaydi, shu bilan birga, shu mantiqiy ma'noga emotsional munosabatini ham ifodalaydi. Masalan, "pixini yorgan", "ilonning yog'ini yalagan" frazeologazmlari katta hayotiy tajribalilikni, mug'ombirlikni anglatishi bilan birga kishilarga nisbagan salbiy emotsional munosabatini ham bildiradi. Shu bois, bu kabi frazeologizmlarni neytral vaziyatda ishlatib bo'lmaydi. Chunonchi, "tili bir qarich" iborasi gapdon shaxs xarakterini ifodalashi bilan birga, shu shaxsga bo'lgan o'ta salbiy munosabatni ham bildiradi. Quyidagi misolda *Yuk(i) og'irlik qilib qoldimi* iborasi yordamida aynan so'zlovchiga nisbatan salbiy munosabat, uni mensimaslik, o'zini tinglovchidan baland tutish kabi xarakterga xos xususiyatlar bilan bir qatorda tinglovchidan jahli chiqqanlik holati ham ifodalangan:

- *Brigadirlik yuki og'irlik qilib qoldimi?*

Yana indamadim. Oxiri uning toqati toq bo'ldi.

"Ikki eshik orasi" asarida ko'ngil va yurak leksemalari asos bo'lgan frazeologik birliklar ko'p uchraydi.

Ko'ngil leksemasi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha ta'riflanadi: Kishining his-tuyg'u va kechinmalari manbayi; yurak, qalb, dil.⁷ So'zning lug'aviy ma'nosidanoq anglash mumkinki, ko'ngil aynan his-tuyg'ular, kechinmalar manbayi sifatida so'zlovchining ruhiy holatini namoyon qiladi. Shu sababdan ham muallif qahramonlar ruhiy-hissiy holatini tasvirlashda ko'ngil leksemali iboralardan keng foydalangan.

Asarda yurak leksemasi asosida shakllangan iboralar ham talaygina qo'llangan. Yuragi qalqib ketmoq, yuragi uvushib ketmoq, yuragi ezilmoq, yuragi g'ash tortmoq kabilar shular jumlasidandir:

- *Shomurod akamnikiga ketyapsizmi? - dedi salom berib. - Tezroq bora qoling. Yuragim bir qalqib tushdi. - Tinchlikmi? - Tinchlik. Xavotir olmang... - dedi-yu ketaverdi (42-bet)*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бурханова М. Креолизатив матнларнинг паралингвопозетик тадқиқи: Филол.фан.бўй.фалс.д-ри (PhD)... дисс. – Фаргона, 2022.
2. Исмоилов Х. Суд лингвистикасининг социолингвистик ва психолингвистик аспекти (жиноят ишлари бўйича суд мажлиси мисолида): филология фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. – Андижон, 2021. – Б.17.
3. Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик. I жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б.221.

⁷ O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. Ikkinchi jild. Toshkent, 2023. -b.1030.

4. Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари ҳақида. – Андижон, 1980. – 42 б.;

5. Саидхонов М. Новербал воситалар ва уларнинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол.фан.ном...дисс. автореферат. – Тошкент, 1993. – 24 б.;

6. Саидхонов М. Мимик новербал воситалар. Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари // халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Андижон, 2020-йил, 4-май. – Б.238